

**G'AZNACHILIK BYUDJETINI IJRO ETISH TIZIMI FAOLIYATI BILAN  
BOG'LIQ DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMLARI TAHLILI.**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti  
Budjet hisobi va g'aznachilik kafedrasida, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor Gulyora Kasimova  
“Budjet nazorati va g'aznachilik” yo'nalishi 4-kurs talabasi  
Mamadaliyev Xolmurod*

**Annotatsiya:** Maqola mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida samarali davlat moliyaviy nazorati tizimi faoliyatining joriy holati tahlili keltirilgan. Shuningdek, davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, jumladan, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishdagi holati natijadorligi.

**Kalit so'zlar:** Davlat moliyaviy nazorati, g'aznachilik, yagona g'azna hisobraqami, byudjet mablag'i, byudjet tashkilotlari.

**АНАЛИЗ СИСТЕМ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО  
КОНТРОЛЯ В СВЯЗИ С ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КАЗНАЧЕЙСКОЙ  
СИСТЕМЫ ИСПОЛНЕНИЯ БЮДЖЕТА.**

**Аннотация:** В статье представлен анализ современного состояния эффективной системы государственного финансового контроля в результате реформ, проводимых в нашей стране. Также эффективность казначейского исполнения государственного бюджета по сбору всех доходов государственного бюджета и государственных специальных фондов, включая поступления бюджетных организаций из внебюджетных фондов, на единый казначейский счет и реализации всех своих расходов с этого счет.

**Ключевые слова:** Государственный финансовый контроль, казначейство, единый казначейский счет, бюджетные средства, бюджетные организации.

**ANALYSIS OF STATE FINANCIAL CONTROL SYSTEMS IN  
CONNECTION WITH THE ACTIVITY OF THE TREASURY BUDGET  
EXECUTION SYSTEM.**

**Abstract:** The article presents an analysis of the current state of the effective state financial control system as a result of the reforms being carried out in our

country. Also, the efficiency of the treasury execution of the state budget in collecting all the revenues of the state budget and state special funds, including the receipts of budget organizations from extra-budgetary funds, into a single treasury account and realizing all their expenses from this account.

**Key words:** State financial control, treasury, single treasury account, budget funds, budget organizations.

Davlat moliyasini boshqarishning institutsional tarkibida, boshqa vakolatli organlar bilan bir qatorda, G'aznachilik ham alohida muhim o'rin egallaydi. G'aznachilik - byudjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatlarini ijroga qabul qiladi va byudjet tashkilotlariga yetkazib berilgan tovar mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun G'aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig'iga binoan vakolatni o'z zimmasiga oladi va byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini ta'minlash va nazorat qilish asosida to'lovlarni amalga oshiradi.

G'aznachilikda moliyaviy nazorat deganda davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari to'planadigan va ushbu mablag'lar doirasida aniq belgilangan yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g'azna hisobraqami orqali davlat byudjetining ijro etilishi hamda shu orqali davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi. Davlat moliyaviy nazorati respublika darajasida - O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining va respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan; mahalliy darajada Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi. Davlat moliyaviy nazorat organlari: O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir. Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining daromadlari qismi bo'yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati printsiplari. Davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchliligi va xolisligi davlat moliyaviy nazoratining printsiplaridir.

Budjet ijrosi jarayoni xaqida axborotlar budjet hisobini tashkil qilish va yuritish orqali shakllantiriladi. Bunda, belgilangan budjet tasnifi bo'yicha budjet daromadlari shakllantiriladi va xarajatlar amalga oshiriladi.

Davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy tamoyillari - kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat budjetining g'azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qorag'alpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Budjet hisobini alohida xususiyatlaridan biri – budjet ijrosini to'g'ri tashkil etish, moliya budjet intizomiga rioya qilish va nazorat funksiyasini amalga oshirishidir.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati. G'aznachilik bo'linmalari davlat moliyaviy nazoratini budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari mablag'lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro'yxatdan o'tkazish; - xarajatlar smetalarida va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig'i bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to'lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to'lov intizomiga rioya etilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiradi. Byudjet nazoratini amalga oshirishning muhim metodi - barcha darajadagi byudjetlarning daromadlar va xarajatlar qismlari ijrosini, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi ijrosini iqtisodiy tahlil qilish. Uning davlat moliyasi va xo'jalik sub'ektlari moliyasini boshqarishda, shuningdek bozor sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda ahamiyati sezilarli darajada oshdi.

G'aznachilikda moliyaviy nazoratining asosiy vazifalaridan biri bu budjet qonunchiligiga rioya qilinishini, budjet intizomni ta'minlash, budjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik orqali davlat moliyaiy siyosatining amalga oshirilishiga ko'maklashishdan iboratdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, byudjet tizimi va byudjet jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish va rivojlantirish ushbu mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Byudjet tizimi katta hajmdagi axborot oqimlari kesishuvining markazi hisoblanadi Bugungi kunda mamlakatimizda budjet tizimi budjetlari g'azna ijrosi moliyaviy nazorati faoliyatni o'rni va ahamiyati ortib borayotgan sharoitda quyidagilarga e'tibor qarqatish maqsadga muvofiq:

1. Byudjet tashkilotlarida g'aznachilik nazorati bajaradigan vazifalari hamda



javobgarligini chegaralarini aniq belgilab berish;

2. Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha nomativ-xuquqiy ba‘zani mustaxkamlash;

3. G‘aznachilikda moliyaviy nazoratning samarali tashkil etilishida xalqaro standartlardan foydalanish va axborot tizimini takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi G‘aznachilik tizimini yanada takomillashtirishning yana bir muhim masalalaridan biri bu davlat xaridlar tizimi hisoblanadi. Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yo‘nalish hisoblanadi: davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish; davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring va baholashni tatbiq etish.

Davlat xaridlar tizimini takomillashtirishni muhim strategik masalalaridan biri — davlat xaridini rejalashtirishni qisqartirishdir. Davlat xaridi faoliyatini rejalashtirishning tamoyili budjet mablag‘larining ishlatilishi samaradorligini va tejamkorligini oshirish deb baholanishi kerak. Respublikamizda kelgusida g‘aznachilik tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish uchun doimiy g‘aznachilikning Yagona g‘azna hisobvarag‘i monitoringini o‘tkazish kerak. Hozirgi kunda budjet amaliyotida g‘aznachilik takomillashtirish va davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish uchun Davlat budjeti mablag‘larini prognozlashtirish va kassali rejalashtirishni takomillashtirish bilan birga, davlat budjeti mablag‘larini likvidligini oshirishga olib keladigan G‘aznachilikning Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi operatsiyalarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish zarur.

Davlat budjetini bajarishga qaratilgan g‘aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini ancha oshiradi. Budjet tashkilotlari xaridini to‘g‘ri va samarali tashkil qilish uchun mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish jarayoniga kompleks yondashish zarur. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bosqichida budjetdan tashqari fondlarning mablag‘larini oqilona sarflashning eng maqbul mexanizmini shakllantirishimiz kerak. Shu sababli, kelajakda Davlat budjeti tarkibidagi davlatning maqsadli pul jamg‘armalari faoliyatini takomillashtirishni ta‘minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bir qator rivojlangan davlatlarda budjet ishlab chiqish jarayonida yanada samarali uslublardan foydalanish maqsadida yangi “maqsadli-dasturli rejalashtirish uslubi” yoki “natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish” uslubi qo‘llaniladi. Budjet islohotining muhim yo‘nalishlaridan biri — natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirishni joriy etishdir. Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish (NYB) — moliyaviy resurslarni taqsimlash va foydalanishning tiniqligi, nazorat ostida bo‘lishi va samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Bunda cheklangan moliyaviy resurslar jamiyatda ko‘zda tutilgan aniq maqsadga erishishiga qarab hamda davlat budjeti siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq taqsimlanadi.

Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirishdan foydalanganimizda xarajatlarining alohida moddalari bo‘yicha budjet g‘azna ijrosida maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni bajarishga o‘tiladi. Dasturiy-maqsadli uslubda rejalashtirish uzoq muddatli baholash asosida, budjet xarajatlarini qismlarga ajratish esa maqsadlar va dasturlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bunda budjet faqatgina xarajatlar tasnifining “an’anaviy” turlari yordamidagina emas, balki aniq dasturlar bo‘yicha ham ishlab chiqiladi. Dastur doirasidagi har bir tadbirga xarajatlar alohida ko‘rsatiladi. Ular shu dastur doirasida moliyalashtirilayotgan ob‘ekt yoki xizmatning holatini va dastur yakunlanganda erishilishi rejalashtirilayotgan holatini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganimizda, samarali g‘aznachilik tizimini amalga oshirish har qanday hukumat yoki tashkilotning moliyaviy barqarorligi va muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Mablag‘larning to‘g‘ri boshqarilishini va hisobini ta‘minlash orqali g‘aznachilik tizimi tashkilotlarga moliyaviy maqsadlariga erishishda va manfaatdor tomonlarning ishonchini saqlab qolishda yordam berishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tuychiyev A.J., Tashmuxmedova D.A. G‘aznachilik. Darslik. – T.: “IQTISOD MOLIYA” 2019. -834 b.
2. Qosimova G. A. Davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. 372b.
3. G.Qosimova. “G‘aznachilik”.O‘quv qo‘llanma 2013 yil. Iqtisod-Moliya
4. <https://lex.uz/acts/-1139941>